

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi shaxsiga qo'yilgan talablar

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-bosqich

Talabasi Qurbonova Nasiba Alisher qizi

Xurramova Sabrina Alisher qizi .Xolmo'minova

Sevinch Alisher qizi

Annotatsiya. Ushbu maqolada mакtabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining shaxsiga va burchiga qo'yilgan talablar. Haqiqiy tarbiyachi kasbidagi ma'sulyatlari faoliyati jarayonida nimalarga e'tibor berishi haqida malumot berilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim tarbiya, kitob,bilim , malaka ,ko'nikma , tarbiyachi kompitensiyalari,tarbiya maskani, oila.

Kirish.

Maktabgacha ta'lim soxasidagi bolalar kelgusi 3-4 yilda 5-6 yoshdagi barcha bolalarni maktabgacha ta'limga to'liq qamrab olishga erishmog'imiz shart .

SH.M.Mirziyoyev.

Tarbiyachi yosh avlodni xalqimizning munosib farzandlari qilib tarbiyalashdek muxum va faxirli shu bilan birga ma'sulyatli vazifalarni bajaradi.Tarbiyachining siyosiy yetukligi bolalarni tarbiyalar sifati uchun xalq va jamiyat oldidagi o'z ma'sulyatini anglashga ta'lim tarbiya ishlarini xal etishga ijodiy yondashishiga o'z maxoratini doimo faollashtirib borish va xamkasblarining ishdagi o'sishiga ko'maklashuviga yordam beradi. Tarbiyachi o'zi yashab turgan o'lka hayotini bilishi tabiat va jamiyat ommilarini tushunishi ijtimoiy faol bo'lishi kerak .Xar qanday jamiyatda barkamol avlodni tarbiyalash voyaga yetkazish va uni malum bir kasbga yo'naltirish og'ir va mashaqatli mexnat evaziga amalga oshiriladi bu mashaqatli mexnat uzlusiz ta'lim va tarbiyaviy faoliyatning maxsulidir. Mamlakatimizning kelajagi o'zbekistonning istiqboli ta'lim soxasida olib

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

borilayotgan isloxtlarning muvoffaqiyatlari ko'p jixatdan tarbiyachi va o'qituvchiga uning saviyasiga ,tayorgarligiga, fidoyiligiga yosh avlodga ta'lim berish va barkamol inson darajasida tarbiyalab voyaga yetkazishga nisbatan shijoatga bog'liq . Tarbiyachi avvalambor har qanday pedagogik vaziyatlarda bolaning ichki va tashqi dunyosini to'g'ri tushunishi kerak. Tarbiyachi har bitta bola bilan aloxida ishlashi harakterini o'rganib yangi qobilyatlarini yuzaga chiqarishiga yordam berishi zarur. Har qanday vaziyatni to'g'ri baxolashi kerak ziddiyatli tasodifiy holatlarda ikkilanmasdan to'g'ri qaror qabul qilishi kerak.

Fikir va muloxazalarni so'z bilan ,mimika va pontamimik harakatlar bilan o'quvchi ongiga aniq yetkaza olishi zarur.Bolalar ongida erkinlik va tashabbuskorlikni ,o'z fikr muloxazalarini qo'rmasdan bayon qilish ko'nikmalarida tarbiyalash kerak . Tarbiyachi avvalambor har bir bolaning yashirin ijobiy fazilatlarini ko'ra olishi va takomillashtirishi lozim. Bolalarning ijtimoiy kelib chiqishiga qarab toifalarga ajratmaslik va bir xil munosabatda bo'lishi lozim. Pedagog bolalarni kuzata oladigan ularning xulqi xatti-harakati sabablarini to'g'ri taxlil qilib ,unga ijobiy tasir etuvchi shaxsdir .Tarbiyachi mактабгача yoshdagи bolalarga tabiat , jamiyat hodisalari kattalarning mehnati xaqida boshlang'ich bilim va tushunchalar beradi, ularga madaniy axloq, o'z tengdoshlari va kattalar bilan madaniyatli munosabatda bo'lish odatlarini singdiradi yaxshilik, haqiqatgo'ylik ,adolat jasurlik , kamtarinlik kattalarga hurmat bilan qarash tabiatga qiziqish, kuzatuvchanlik o'simlik va hayvonlarga g'amxo'rlik bilan qarash ,mexnatsevarlik kattalarni mexnati natijalarini asrab-avaylash kabi axloqiy sifatlarni tarbiyalaydi.

Xulosa qilib aytganda ,Tarbiyachi o'z kasbini vatanini sevmog'I kerak . Yosh avlod bolalariga ham vatanni sevmoq kerak ekanligini singdirib tarbiyalash zarur .Bola-ning kelajagi ertangi kuni uchun kelajakda o'z yurtiga nafi tegadigan inson qilib tarbiyalash uchun o'z kuchini mahoratini safarbar qilgan tarbiyachigina haqiqiy – pedagog tarbiyachi hisoblanadi. Aksincha bolaning kelajagiga befarq bo'lgan erangi kuni uchun qiziqmaydigan tarbiyachi xaqiqiy pedagog tarbiyachi xisoblanmaydi.Tarbiyachi avvalambor bolani o'z kasbini sevishi lozim.

Adabiyotlar ro'yxati.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

- 1.SH.M.Mirziyoyev.Buyuk kelajagimizni mard va olajanob xalqimiz bilan birga quramiz .T;O'zbekiston 2017.
- 2.'Ilk qadam '' Davlat o'quv dasturi -T;2022.
- 3.Abdulla Avloniy ''Turkiy guliston yoxud axloq'' -Toshkent , o'qtuvchi 1992 y .
- 4.Hasanboyeva O.Tadijieva M.Toshpo'latova Maktabgacha ta'lim pedagogika darslik '' Tafakkur '' nashiryoti. Toshkent 2019 .